

XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNOLOGIK YANGILASH ASOSLARI

Norboyev Nodir

Millat Umidi University Xalqaro biznes fakulteti

Biznes boshqaruv yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotasiya: *Maqolada xizmatlar sohasining shakllanishi va rivojlanishining yangi istiqbollari ketilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar iqtisodiyotdagi o'sish hamda tarkibiy o'zgarishlarning muhim omili sifatida tahlili keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *xizmat, xizmatlar sohasi, iqtisodiyot, bandlik, tarmoq, xizmatlar bozori.*

Аннотация: *В статье рассматриваются новые перспективы становления и развития сферы услуг. Также анализ инноваций в сфере услуг как важного фактора роста и структурных изменений в экономике.*

Ключевые слова: *сервис, сфера услуг, экономика, занятость, сеть, рынок услуг.*

Abstract: *In the article delves into new prospects for the formation and development of the service sector. Also, the analysis of innovations in the field of services as an important factor in growth and structural changes in the economy is presented.*

Keywords: *service, services sector, economy, employment, network, services market.*

Xizmatlar sohasi jahon va mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi, rivojlanishi hamda barqarorligini ta'minlashda tobora muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xizmatlar sohasining iqtisodiy barqarorlikka keng va chuqur ta'siri ko'plab tadqiqot natijalarida o'z tasdig'ini topgan. Shuningdek, xizmatlar sohasi 207 mamlakat taraqqiyotida, jumladan kambag'allikni kamaytirish, asosiy xizmatlar, xususan, ta'lim olish, ichimlik suvi ta'minoti va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish kabi Mingyillik Rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarmoq hisoblanadi[1]. Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra xizmat ko'rsatish va servis sohasi mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirishda qishloq xo'jaligi yoki qayta ishlash sohalariga nisbatan yuqoriroq ta'sirga ega ekanligi o'z tasdig'ini topgan[2]. Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Parlamentga murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Kambag'allikni kamaytirish-bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir"[3] Xizmatlar sohasining

iqtisodiyot, bandlik, YalMdagi ulushining oshib borishi bevosita xizmatlar savdosini tashkil qilish, xizmatlar eksport-importini to'g'ri yo'lga qo'yish kabi masalalarni kun mavzusi sifatida maydonga olib chiqadi. Shuningdek, xizmatlar importi raqobatni, eng yaxshi xalqaro tajribani, yaxshi malaka va texnologiyalarni, investitsiya kapitalini jalb qilish orqali ish faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Boshqa tomondan esa xizmatlar savdosini samarali tashkil qilinishi iqtisodiy ko'rstakichlarni yaxshilash asosida an'anaviy va yangi eksport imkoniyatlarini taqdim etadi[4]. Xizmat ko'rsatish sohasining rivoji mamlakatda ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zaruriy infratuzilmani yaxshilanishi orqali xorijiy investorlarni mamlakatga jalb qilishni ta'minlasa, boshqa tomondan sohani o'zini rivojlantirish uchun xorijiy investorlarni kirib kelishi uning mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishdagi roli va ahamiyati yuqoriligini ifodalaydi. Shu bilan birga xizmatlar sohasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda o'ziga xosliklarga ega bo'lib, bu o'z navbatida soha rivojini ta'minlash uchun uni tartibga solib turish lozimligini talab qiladi. Xususan, xizmatlar sohasida tabiiy monopoliyalar, tarmoqqa kirishdagi yuqori to'siqlar hamda axborot assimetriyasi kabi muammolarni ko'proq uchrashi shular jumlasidandir. Odatda xizmat ko'rsatish bozorini to'g'ri va samarali faoliyatini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarda tartibga solib turish talab qilinadi: -monopoliyalarga barham berish asosida bozorda raqobat kurashini ta'minlash. Xususan ,mamlakatimiz misolida olib qaraladigan bo'lsa, havo yo'llari, temir yo'llar, elektr ta'minoti kabi tarmoqlarni ko'rsatish mumkin; -xizmatlar sohasiga malakali, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish orqali xizmatlar sifatini kafolatlash va raqobatbardoshligini oshirish. Xususan, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirishda kadrlar raqobatbardoshligini oshirish shular jumlasidandir; -ist'emolchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining belgilangan huquq va majburiyatlarini to'laqonli bajarishlari, ya'ni ular o'rtasida tuzilgan shartnomalarda mavjud bo'lgan shartlarni to'laqonli bajarilishini ta'minlash. Xususan ,kommunal xizmatlar ta'minotida iste'molchilarni xizmat haqini o'z vaqtida to'lashini ta'minlash, ko'rsatilgan xizmatning belgilangan talab darajasida bo'lishini ta'minlash kabilar shular jumlasidandir. -axborot assimetriyasini yo'qotish va mijozlarni to'liq ma'lumot bilan ta'minlash; -xizmatlar sohasi taraqqiyotini atrof muhitga, tarixiy, madaniy va ma'naviy merosga salbiy ta'sirni kamaytirish. Bu holat, aynan turizm rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. -bank va boshqa moliyaviy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish asosida moliyaviy xizmatlar barqarorligini ta'minlash kabilar shular jumlasidandir. Fikrimizcha, xizmatlar bozorini samarali tashkil qilish hamda liberallashtirish ma'lum darajada tartibga solish va jahon talablariga javob beradigan me'yoriy-huquqiy ta'minotni shakllantirishni talab etadi. Bu o'z navbatida xorijiy va mahalliy investorlarni sohaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish

tarmog'ini iqtisodiyotdagi ulushi hamda ahamiyatining oshib borishi uning boshqa tarmoqlar rivojlanishida asosiy dastak vazifasini bajarishini ta'minlamoqda. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda innovatsion rivojlanish bosqichiga o'tilayotgan bir davrda xizmat ko'rsatish tarmoqlarida texnologik yangilanishni boshqarish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Xususan, Evropa Ittifoqi davlatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda innovatsion rivojlanish yo'nalishi tanlab olingan. Natijada, bugungi kunga kelib Evropa Ittifoqi kelgusi umumiy siyosatida mintaqalarga "aqlli" ixtisoslik strategiyalarini ishlab chiqish talabini qo'yimoqda va mazkur strategiyalarni ishlab chiqishda xizmatlar sohasida innovasiyalarni ta'minlash muhim rol o'ynashi ta'kidlanmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovasiyalar xizmat ko'rsatish tarmog'i yoki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga joriy qilinishidan qat'iy nazar, yangi yoki sezilarli darajada takomillashgan xizmat konsepsiyalari va takliflarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonlari, xizmatlar infratuzilmasi, iste'molchilarga yetkazib tijoratlashtirish (sotish, berish, biznes modellarini ishlab chiqish, marketing, yetkazib berish), xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish kabi sohalaridagi innovasiyalar bir vaqtning o'zida bir qancha foydalanuvchilar guruhlariga xizmat qilish imkonini beradi. Yuqoridagilarga asoslaniladigan bo'lsa, xizmatlar sohasidagi innovasiyalar iqtisodiyotdagi o'sish hamda tarkibiy o'zgarishlarning muhim omili sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, nafaqat xizmatlar sohasida balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni kuchaytirishga, buning asosida, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni yangi yo'nalishlarini aniqlash, yetakchi bozorlarni shakllantirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.oecd.org/investment/globalforum/40302909.pdf>
2. World Bank presentation, "Role of Services in Economic Development"; Geneva, July 2012 (Data source: World Bank, 2010)
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 24 январ. 2020 йил
4. <https://www.oecd.org/investment/globalforum/40302909.pdf>